ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

OMMAVIY SIYOSIY RITORIKADA FREYMING, POLARIZATSIYA VA STRATEGIK NOANIQLIK KABI DISKURSIV STRATEGIYALARNING ROLI

Abdusamatov Farruxbek,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: farruxbekabdusamatov95@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ommaviy siyosiy ritorikada ishlatiladigan asosiy diskursiv strategiyalart – polarizatsiya, freyming va strategik noaniqlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola bu strategiyalarning auditoriyani motivatsiya qilish, ijtimoiy birlikni shakllantirish va raqiblarni tanqid qilishdagi muhim rolini misollar va ta'riflar bilan ochib beradi. Maqolada siyosiy liderlar ushbu strategiyalardan qanday foydalanishi ham o'rganilgan.

Annotation: This article analyzes the impact of three key discursive strategies in public political rhetoric: framing, political polarization, and strategic ambiguity. It explores how these tools shape public perception, delegitimize opponents, and mobilize supporters. By examining concrete examples from political leaders' speeches, the study reveals the mechanisms through which these strategies function and evaluates their broader implications for democratic discourse and civic engagement.

Аннотация:

В статье рассматривается влияние трёх основных дискурсивных стратегий в массовой политической риторике: фрейминг, политическая поляризация и стратегическая неопределённость. Анализируется, как эти приёмы формируют общественное мнение, дискредитируют оппонентов и мобилизуют аудиторию. На основе конкретных примеров из речей политических лидеров авторы демонстрируют, как работают эти стратегии и как они влияют на демократические процессы и политическое участие граждан.

Kalit so'zlar: freym, freyming, konseptual doira, narrativ, identitet, polarizatsiya, strategik noaniqlik, performativlik

Siyosiy nutqlarning markazida turadigan yana bir muhim jihat shundan iboratki, bu freyming deb nomlanadi. Freyming deganda kadrga solish yoki kontekstga moslashtirish strategiyasi deb nomlanadi. Ya'ni, bunda siyosatchilar biror reallik yoki g'oyani ma'lum bir nuqtai nazardan ko'rsatadilar. Freymlar bilan insonlarni voqealarga baho berishi va ularni qanday his etishlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Freymlar siyosiy doirada "Bu nima haqida?" degan savolga javob berishga yordam beradigan muayyan konseptual doira yoki ramka. Freymlar diskursiv struktura bo'lib, fikrlarga shakl, qolip, yo'nalish va chegara beradi. Freym nutqda doim boshqaruvchi rolda bo'ladi, ya'ni qolgan boshqa diskursiv elementlar unga xizmat qiladi.

Quyidagi jadvallarda davlat rahbarlari freymlardan qanday foydalanishlari va freymlarning funksiyalari bilan tanishamiz:

Prezident nomi	Freym nomi	Freym mazmuni	Freym funksiyasi
Joe Biden	Imkoniyatlar va birlik	Jamoaviy harakat orqali cheksiz imkonlar	Motivatsiya berish, ruhlantirish

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Emmanuel Macron	Begunohlik va insonparvarlik	Bolalarning azobini urushlar orqali ko'rsatish	Axloqiy ustunlikni qaror toptirish
Zelenskiy	Qarshilik va qahramonlik	Ozodlik ruhiyati, matonat va tarixiy xotira	Ruhiy safarbarlik va milliy qarshilik
Vladmir Putin	Tarix va xavf	Tashqaridagi dushmanni tahdid deb ko'rsatish, merosni mudofaa qilish	Huquqiy tizim yaratish
Shavkat Mirziyoyev	Hamjihatlik va yangilanish	Ijtimoiy birlik milliy qadriyatlar sababidan	Barqarorlik va milliy o'zlikni targ'ib qilish

Freymlar ham maqsadi va vazifalariga qarab bir nechta turlarga bo'linadi.
Quyidagi jadvalda freym turlari, ta'rifi va unga misol keltirilgan:

Freym turi	Ta'rifi	Misol
Yangilanish freymi	Umid va o'zgarishlarni ta'kidlash, isohot	"Yangi O'zbekiston sari – yangi qadamlarda birgamiz"
Barqarorlik freymi	Mavjud siyosiy tizimni saqlash muhimligini targ'ibot qilish	"Har qanday o'zgarish milliy birdamlikka zarar yetkazadi"
Insonparvarlik freymi	Nizolarni yoki urushni insoniy yo'qotishlar orqali baholash	"Bolalar bombalar ostida ulg'aymasligi kerak"
Qahramonlik freymi	Jamoani yoki o'zini jasorat bilan ifodalash	"Biz urushsiz yashay olmaymiz – tarix shuni talab qiladi"
Tahdid freymi	Dushmanni xavf sifatida ko'rsatish	"Tashqi kuchlar bizni bo'lishga urinyapti"

Mashhur siyosatshunos olim R.M. Entman aytib o'tilganidek, freyming – bu muayyan hodisani ma'lum jihatlarini ajratib ko'rsatib ko'rsatilganidek, ma'lum bir talqin yoki baho berishni ilgari surishdir. M.C. Nisbet ta'kidlaganidek, iqlim o'zgarishi masalasi "yashil texnologiyalarga sarmoya orqali iqtisodiy imkoniyat" yoki "milliy xavfsizlik uchun tahdid" sifatida ramziy kadrga solinishi mumkin. Shu tariqa, siyosiy nutq jamiyatdagi murakkab masalalarni soddalashtirib, jamoatchilik talqinini shakllantiradi. Demak, freyming siyosatshunoslar va prezidentlar tomonidan oqilona foydalaniladigan kuchli strategiya usuli ekan.
Quyidagi jadvalda freymning boshqa strategiyalardan farqlari berilgan:

Strategiya nomi	Ta'rifi (nima?)	Maqsadi nima?	Freym usulidan farqi nima?
Freym	Kontekstual struktura (umumiy qarash, konseptual doira)	Haqiqatni qanday ko'rishni shakllantirish	O'ziga bir nechta usul va elementni kiritadi. Bu bir umumiy tuzilma

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Emotsional chaqiriq	Hissiy ta'sir orqali auditoriyani jalb qilish	His uyg'otish, hissiy pozitsiyalash	Freym ichida vosita sifatida ishtiladi.
Polarizatsiya	"Biz" va "Ular" ajratmasi orqali raqibni yomonlashtirish	Jamiyatni safarbar qilish	Freym yaratishda foydalaniladi: masalan, "xavf" va "dushman" freymi
Metafora	Ramziy yoki obrazli ifoda orqali tushunchani berish	Murakkab ideani shakllantirish	Metafora freymni ramziy jihatdan bezatadi; freym doirasida joylashadi
Takrorlash	Ma'lum iborani qayta-qayta aytish	Esda qoldirish, urg'u berish	Freym ichidagi ritorik kuchaytiruvchi vosita
Narrativ (hikoyalash)	Hikoya asosida ma'lumot berish	Raqamlar emas, tajriba orqali ta'sir qilish	Narrativ ma'lum freymga xizmat qiladi (masalan: "qahramonlik" freymi

Gaplardagi narrativ strukturaning mavjud bo'lishi ham nutqning muhim aspektlaridan biri hisoblanadi, sababi inson kommunikatsiyasi va fikrlash olami hikoyachilikka asoslanadi. Polletta (2006) ta'kidlaydiki, siyosiy arboblar va siyosiy sohada ishlaydigan shaxslar ko'pincha yaxshilik va yomonlik, taraqqiyot va inqiroz, inklyuzivlik va eksklyuzivlik o'rtasidagi kurashlar haqida hikoyalar yaratadi. Masalan, C. Carson AQSH dagi fuqarolikka oid murojaatlarda adolatsizlikni qoralaydigan hikoyachilik uslubi shakllantirilgan va ishlab chiqilgan edi. Hikoya olib borish metodi jamoaviy hamjihatlikni ta'minlaydigan kognitiv freymlarni ta'minlab beradi.

Identitet elementining shakllanishi ("identity formation"). R. Brubaker ta'kidlashicha, siyosiy turdagi diskurs ko'pincha irq, din, etnik kelib chiqish, millat yoki ijtimoiy sinf deb atalgan kollektiv identitetlarga ham bog'liq va ularni mustahkamlaydi yoki ularga qarshi chiqadi. R.Wodak fikriga ko'ra, siyosiy murojaatlardagi identitet elementlari orqali xalqlar birlashtirilishi yoki jamiyat bo'linishga yuz tutishi mumkin. Shu sababdan siyosiy nutq nafaqat ishontirish quroli, balki ijtimoiy realliklarni shakllantirib beruvchi element bo'lib hissa qo'shadi.

Takrorlash va ritorik birliklar ham siyosiy ritorik nutqning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. K. Burke aytadiki, takrorlash asosiy ma'lumotlarni mustahkamlaydi va ularning xotirada uzoq vaqt saqlanib qolishida muhim rol o'ynaydi. C.M.Condit keltirib o'tishicha, siyosiy nutqlarda ko'pincha anafora (ketma-ket iboralar boshlanish qismlarini qaytarish), parallelism va boshqa stilistik metodlar ishlatiladi.

Siyosiy nutqda ishlatiladigan yana bir strategiyalardan biri bu polarizatsiya. Polarizatsiya metodi shundan iboratki, ommani yoki auditoriyani ikki qarama-qarshi jamoaga ajratish, birinchi guruhni "biz" deb, boshqasini "ular" deb belgilash orqali ularni o'zaro bahs, debatga undaydigan ritorik strategiyadir. Polarizatsiya usuli asosan jamoani o'z fikriga sodiq qolishga chaqirish, diqqatni boshqa tomonga qaratish yoki o'z guruhdoshlarini faollashishga da'vat etish uchun ishlatiladi. Polarizatsiya o'zining 6 xil asosiy jihati bilan ajralib turadi: murosaga yopiq yondashuv, "biz" va "ular" tuzilmasi, oq va qora qarashlar, raqibni tomonni tanqid qilish, ommaviy axborot vositalarini boshqarish, emotsional til va qo'rquv uyg'otish. Nutqda doimo ikki tomon "biz" va "ular" mavjud bo'ladi. "Biz"

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

bunda – to'g'ri, vatanparvar, halol ma'noda bo'lsa, "ular" so'zi – zararli, yot, egri ma'nolarini ifodalaydi. Bu orqali raqibni demonizatsiya qilish mumkin bo'ladi. Demonizatsiya bu raqib tomonni "yomonotliqqa chiqarish" deganidir. Raqibni tanqid qilish xususiyati ham qarshi guruhni "xoin", "xalq dushmani", "vatanni sotganlar" va "millatga xiyonat qilgan" singari terminlar bilan ifodalanadi. Emotsional til va qo'rquv jihati esa odamlarga hissiy tomondan ta'sir o'tkazish uchun ishlatiladi. Bunda qo'rquv, g'azab va nafratga tayanilgan til va nutq birliklaridan foydlaniladi. Murosaga yopiq yondashuv deganda qarama-qarshi tomonning fikrini eshitish yoki murosaga kelish qabul qilinmaydi, inkor qilinadi. Masalan: "Kim biz bilan bo'lmasa, demak, u bizga qarshi", degan so'zlar zamirida shunday jihatni ko'rish mumkin. Oq va qora qarashlar jihatida siyosiy faktlar va tanqidlar soddalashtirib ko'rsatiladi. Ommaviy axborot vositalarini boshqarish xususiyati orqali nutqlar ko'pincha televideniye, ijtimoiy tarmoqlar yoki mitinglar orqali xalqqa yetkaziladi. Masalan, quyidagi nutqiy parchani ko'raylik: "Biz – mustaqil va haqli xalqmiz. Ular esa bizni har doim bo'ysundirishni xohlagan mustamlakachilardir". Bunda "biz" so'zi orqali milliy birlik, hamjihatlik ifodalangan, "ular" so'zi esa tashqi dushmanni talqin qiladi. Bunday yondashuv orqali siyosiy rahbar o'z tarafdorlarini safarbar qilib, raqibni yovuzlashtirishi mumkin bo'ladi.

Strategik noaniqlik (Strategic ambiguity) – bu siyosatchilar tomonidan ataylab abstrakt, ko'p ma'noli yoki ikki taraflama birikmalarni ishlatish orqali maqsadli auditoriyalarga turlicha ma'lumotlar berish, ammo hech birini oshkora inkor qilmaslik strategiyasidir. Strategik noaniqlik 4 ta maqsad: qarama-qarshi tomonni chalg'itish, ichki va tashqi siyosatni hamohanglashtirish, har xil siyosiy sharoitda ixtiyoriy yo'nalishga o'tish va qarshi guruhlar orasida ochiq to'qnashuvning oldini olish uchun ko'pincha ishlatiladi. Ko'p ma'noli birliklarni ihslatish deganda, birgina jumla bilan ko'plab guruhlarni o'z manfaatiga qarab ularga ta'sir qilish mumkin. Masalan, "Biz har qanday vaziyatga tayyormiz" deyilganda ham diplomatik, ham harbiy chorani anglatish mumkin. Shuningdek, Fransiya Prezidenti Emmanuel Macron strategic noaniqlik prinsipidan foydalanib, hijob masalasi bo'yicha shunday deydi: "Fransiya dunyoviy davlat, lekin har bir fuqaroning e'tiqod erkinligi muqaddas" ("We are secular and that means we respect all religions but we stand firm when these values are threatened"). [1] Bu so'zlar zamirida shunday ma'no kelib chiqadi: Biz hijobga qarshi emasmiz, lekin ochiq ruxsat ham bermaymiz". Bu balansli diskurs bo'lib, ijtimoiy hamjihatlik va totuvlikni saqlab turishni ko'zda tutadi. Bu yerda "muqaddas" so'ziga e'tibor qilsak, u hissiy jihatdan kuchli, ammo siyosiy tomondan esa betaraflikni bildirib turadi. Xalqaro bosimda neytrallikni ushlab turishni ko'zlagan Vladirmir Putin tomonidan aytilgan navbatdagi jumlaga diqqat qilaylik: "Biz tinchlik tarafdorimiz, har qanday harbiy to'qnashuv xalqaro huquqqa zid"[2]. Bunda neytrallik saqlangan, biroq hech bir tarafni ayblash yo'q. "Tinchlik tarafdori" birikmasi ommatan ijobiy ishora, lekin huquqiy tomondan pinhona ayb qo'yish bor. Yoki, Vladimir Putin tomonidan siyosiy maydonda aytib o'tilgan navbatdagi misolni olaylik: "Agar kimdir bizga tahdid solsa, biz javob bermasdan qolmaymiz". Bu jumlani diskursiv jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, bunda to'g'ridan-to'g'ri urush e'lon qilinmayapti, balki unda harbiy tahdidni anglatish bor. "Kimdir" deganda abstrakt, qanaqadir noaniq sub'yekt tushuniladi, bu iborani ishlatish orqali istalgan har qanaqa harakatni mudofaa yoki himoya sifatida ko'rsatish imkoni borligi uqtirilmoqchi. Shu bilan

[1] www.elysee.fr, Fransiya Prezidenti Emmanuel Macronning 2020-yildagi ommaviy nutqidan olindi.

[2] www.kremlin.ru, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning 2022-yil 24-fevraldagi nutqidan olindi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

birga, nutqda strategic va hissiy ogohlantirish bor. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan keltirilgan quyidagi misolni keltirib o'tamiz: "Islohotlar asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi"[3]. Bunda "asta-sekin" va "bosqichma-bosqich" birliklari vaqt yutishni strategiyasini bildiradi. Bu bilan talabchan auditoriya umid bilan amalga oshirilishini kutadi, lekin aniqlik yo'q. "Islohot" so'zi bu ideologik kalit so'z hisoblanadi, lekin aniq qanaqa o'zgarishlar bo'lishi noma'lumligini bildirib turadi. Ushbu misollarni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalga joylashtiramiz:

Nutqdagi strategik maqsad	Misol mavzusi	Diskursiv texnika	Nutqiy strategiya
Siyosiy betaraflik	O'zbekistonning urushga munosabati	Neytral leksika, xalqaro huquqqa signal	Siyosiy zararlarni kamaytirish
Ikki tomonli talqin	AQSh – Tayvan siyosati	Ko'p ma'nolilik, "but/and" iborasini ishlatish texnikasi	Har ikkala tomonni ma'qullash
Ichki murosani ushlab turish	Makron va hijob masalasi	Konfliktni yumshatish, ko'p ma'nolilik	Ijtimoiy tinchlikni ushlash
Xalq umidini saqlash	Shavkat Mirziyoyevning 'Bosqichma-bosqich" strategiyasi	Ijobiy noaniqlik, leksik kechiktirish	Siyosiy hozirlik, taraddud yaratish
Tahdid qilish, lekin inkor qilmaslik	Vladimir Putin, Neta	Modal verbs + Vagueness	Raqibni nazorat ostida ushlab turish

Performativity metodi (amalga oshirish kuchi) siyosiy ritorikada alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu metod orqali siyosiy notiqlar nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki ishni amaliy bajarish va ijtimoiy harakatlarni vujudga keltirish hodisasidir. Bu metod tilshunos J.L. Austinning "performativ so'zlar' (Performative utterances") nazariyasidan kelib chiqqan. Austin ta'kidlaydiki, ba'zi so'zlar shunchaki reallikni tasvirlamaydi, balki ularning o'zi bir harakat hisoblanadi. Masaln, davlat rahbari qonun imzolaganda yoki e'lon qilganda, bu shunchaki so'z emas, balki siyosiy-huquqiy akt sanaladi. Siyosiy nutqning nafaqat ma'no-mazmuni, balki uning o'tkazilish joyi, ohangi, imo-ishoralari va vaqti ham ta'sir kuchini belgilab beradi.

Quyidagi jadvalda siyosiy xususiyatlar umumiy holatda taqqoslangan:

Prezident	Nutqdagi asosiy xabar	Hissiylik	Ramziy til	Maqsad
Jo Biden	Birlikda barcha narsaga erishish mumkin	+	AQSH - imkoniyatlar	Umid, harakatga chorlov

[3] www.prezident.uz, 2022-yil 20-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ommaviy nutqidan olindi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Zelenskiy	Taslim etmaslik va tarixni unutmaslik	+	Tiz cho'kish – quldorlik belgisi	Qarshilik, g'urur
Shavkat Mirziyoyev	Navro'z – ruhiy uyg'onish	+	Uyg'onish – bu yangilanish	Milliy qadriyatlar targ'ibi
Emmanuel Makron	Urush begunog bolalarni o'ldiradi	+	Soyalar - bu tahdid	Insonparvarlik, axloqiy ustunlik
Vladimir Putin	Tarixni himoya qilish, merosga sodiqlik	+	Jasorat – tarixiy lejitimlik (huquqiylik)	Lejitim (huquqiy) siyosiy pozitsiya

Siyosiy ritorikada axloqiy chaqiriqlar ham alohida ahamiyatga egadir. Siyosatchilar odatda adolat, halollik, insonparvarlik kabi tamoyillarga asoslanib, o'zlarning siyosiy maqsadlarini belgilaydilar. Bunday chaqiriq-da'vatlar umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanganligi sababli kuchli ishontirish kuchi va ta'siriga ega bo'ladi.

Siyosiy ritorikaning ta'sir kuchi uning qanday ommaviy axborot platformasida yetkazilayotganiga ham bog'liqdir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanib borishi siyosiy ritorikani yanada optimal, tezkor, o'zaro muloqotga asoslangan va shaxsiylashtirilgan shaklga aylantirdi. Masalan, siyosatchilar fuqarolar bilan bevosita muloqot va aloqa o'rnatib, siyosiy voqelik va realliklarni o'z vaqtida shakllantirmoqda.

Quyidagi jadvalda prezidentlar siyosiy strategiyalarning deyarli barchasidan foydalanishlarini ko'rishimiz mumkin:

Prezident	Patos	Ramziy til	Freyming	Takrorlash	Polarizatsiya
Joe Biden	+	+	+	+	+
Zelenskiy	+	+	+	+	+
Shavkat Mirziyoyev	+	+	+	+	+
Emmanuel Makron	+	+	+	+	+
Vladimir Putin	+	+	+	+	+

Xulosa qilib aytganda, ommaviy siyosiy nutq bu ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, u jamoatchilik e'tiborini qaratish uchun ramziy va lingvistik unsur-vositalardan strategik foydlaanishni o'z ichiga oladi. Uning asosiy jihatlari ishontirish, identitet, etos, patos, logos, performativlik, freyming, strategic muammoni qo'yish, polarizatsiya, hikoyachilik va auditoriyaga moslashuvchanliklarda o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Aristotle. (2007). On Rhetoric: A theory of civic discourse (G.A.Kennedy). Oxford University press

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

Austin, J. L. (1962). How to things with words. Harvard University Press.
Burke, K. (1969). A rhetoric of Motives. University of California Press
Campbell, K.K. (1998). The Rhetorical Act. Wadsworth Publishing
Carson, C. (1981). In struggle: SNCC and the black awakening of the 1960s. Harvard university press
Condit, C. M. (1988). The rhetorical limits of polysemy. Philology and Rhetoric
Condon, M., & Holcomb, J. (2013). Political rhetoric and audience adaptation. Journal of Political Communication.
Fairclough, N. (1995). Critical Discourse Analysis: The critical study of language. Longman.
Frank, T. (2011). The making of a political campaign. University Press of America
Lakoff, G. (2014). The all new do not think of a an elephant: Know your values and frame the debate. Chelsea Green Publishing
Marcus, G.E., Neuman, W.R., MacKuen, M. (2000). Affective intelligence and Political Judgement. University of Chicago press
Nisbet, M. C. (2009). Communication climate change: why frames matter for public engagement. Environment: Science and Policy for sustainable development.
Perloff, R. M. (2010). The dynamics of Persuasion: Communication and attitudes in the 21st century. Routledge.
Waldron, J. (2007). Security and liberty: the image of balance. Journal of Political Philosophy.
Wodak, R. (2015). The politics of Fear: What right-wing populist discourses mean. Sage.